

ZARDO'ZLIKKA OID MAVZULARNI O'TISHDA KLASTER USULIDAN FOYDALANISH

Orisheva Zuxra Xamidullayevna

A.Qodiriy nomidagi JDPI, Fizika va texnologik ta'lim fakulteti,

Texnologik ta'lim yo'nalishi talabasi, O'zbekiston

e-mail: zuhra.orisheva.79@mail.ru

Annotatsiya: *Maqolada Texnologiya fanida o'quvchilarga halq hunarmanchiligining ayrim turlari, xususan, zardo'zlikka oid mavzularni o'rgatishga Klaster usulidan foydalanishga doir mulohazalar bayon etiladi.*

Kalit so'z va iboralar: *Texnologiya fani, xalq hunarmanchiligi, za'rdo'zlik san'ati, Servis xizmati yo'nalishi, Klaster usuli.*

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6 - sinf o'quvchilariga Texnologiya fanidan "Servis xizmati" yo'nalishi bo'yicha o'tiladigan mashg'ulotlarida zardo'zlik ishlariga oid ma'lumotlardan foydalanish va zardo'zlikka oid amaliy mashg'ulotlar o'tkazish uchun qulay imkoniyatlar mavjud. Xususan, bunda o'quvchilarga zardo'zlik ishlarini bajarish texnologiyasining dastlabki jarayonlari, rivojlanish tarixi, usullari, zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalarining turlari haqidagi ma'lumotlarni berish mumkin. Bu ma'lumotlar o'quvchilarning gazlamashunoslik bo'yicha bilimlarini milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida yanada kengaytiradi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda milliy qadriyatlarimizning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar ochildi. Hozirgi kunda qadimiy shaharlarimizdan bo'lgan Buxoro, Samarqand, Xiva hamda Qo'qonda zardo'zlik san'ati keng rivojlanmoqda.

Zardo'zlik so'zi forscha «zar-tilla», «do'zi-tikmoq» ya'ni zar iplar bilan gul, kashta tikmoq degan ma'noni anglatadi. Zardo'zlik san'ati uzoq tarixga ega. Zardo'zlikning vatani Vavilon bo'lib, u Rim imperiyasiga qarashli bo'lib, zar ipak va jun ip bilan qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Zardo'zlik - bezak san'ati turi; amaliy san'atning zar (tilla va kumush suvi yuritilgan) ip, nozik sim, ipak bilan kashta tikib bezak yaratadigan sohasi. To'rtburchak chambarakka (korcho'pga) o'rnatilgan baxmal, shoyi, movut, charm va boshqa matolarga zardo'zi usulida kashta (gul, naqsh, tasvir) tikiladi. Kashtada ba'zan metall, tosh, shisha munchoqlar ham ishlatiladi, turli matolar (baxmal, shoyi va boshqa) dan quroq qilinadi.

Qadimda ham hozir ham, zardo'zlik bilan shug'ullanadigan hunarmandlarni «Zardo'zlar» deb atashgan. Qadim zardo'zning ish o'rni ko'rpachalar ustida

o'tirib, yog'ochdan tayyorlangan zardo'zlik dastgoxida korcho'pda tikishgan. Tikilayotgan buyumning katta kichikligiga qarab dastgox atrofiga bir nechtagacha zardo'zlar o'tirishgan.

Zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar uncha ko'p bo'lmaydi va ular o'ziga xos tuzilishga ega. Zardo'zlikda ishlatiladigan asosiy asbob korcho'p bo'lib, u chambarak va xo'rakdan iborat. Korcho'p forscha-so'z bo'lib, «kor - ish», «cho'p-taxta», ma'nolarini anglatadi.

Zardo'zlikda korcho'pdan keyin turadigan asbob patila hisoblanadi. Patila - chorrox (4-qirrali) va nafis qilib jirvirlangan, uchi kovlanib qo'rg'oshin quyib vazminlashtirilgan, uzunligi 18-20 smli oddiy yog'och tayyoqchadir.

Angishvona nina qo'lga kirib ketmasligi uchun ishlatiladigan metall g'ilofdir. Zardo'zlikda ikki xil angishvona ishlatiladi, biri oddiy angishvona, ikkinchisi xalqasimon ko'rinishda bo'ladi.

Zardo'zlikda ikki xil turdagi ninalar ishlatiladi.

1. Tikuv ishlari uchun 2-sonli ignalar ishlatiladi.
2. Bezatish ishlari uchun esa 1-sonli ignalar ishlatiladi.

Zardo'zlikda 3 turdagi qaychilardan foydalaniladi.

1. Andoza bichishda kerak bo'lgan qaychilar.
2. Pardozlashda kerak bo'ladigan qaychilar. Bu qaychi kichikroq bo'lib, dastgoh ustida ishlaganda qulay bo'lishi kerak.

3. Gullarni qirqishda ishlatiladigan shturgardon qaychi, ya'ni tuyabo'yin qaychi. Bu qaychi faqat gullarni qirqishda kerak bo'ladi. Naqshlarni qirqish uchun o'rdakburun qaychi ishlatiladi.



1-rasm. Zardo'zlikda ishlatiladigan asboblar.

Zardo'zlik buyumlarini tikish avvalo o'sha buyum uchun material tanlash va ularni bichishdan boshlanadi.

Zardo'zlikda ishlatiladigan gazlamalar assortimenti ikki turga bo'linadi: 1.Asosiy turdagi gazlamalar. 2.Yordamchi turdagi gazlamalar.

Zardo'zlikda ishlatiladigan materiallarga baxmal, duxoba, satin, parcha, atlas, shoyi, movut, doka, adras, vilyur, vilvet, sarja, alacha, bo'z, surp va shunga o'xshagan materiallar kiradi. Shunday ekan moxir zardo'z bo'lishni istagan har bir hunarmand quyidagi hunarlarni bilishi lozim: *birinchisi* rasm solish va naqsh chizish; *ikkinchisi* naqshlarni tushirish va qirqish; *uchinchisi* qirqilgan naqshlarni zar ip bilan tikish va bezatish; *to'rtinchisi* ramziy naqshlar (hayvonot va odamzot olamidagi shakllarni qayta ishlab hosil qilingan naqshlar).

Erkaklar cho'ponlari chetdan keltirilgan baxmal birishim eng a'lo navli barhutlardan tikiladi. Baxmali farangi deb atalgan rus barhuti ham keng foydalanilgan. Bu gazlama g'arbiy Yevropadan Rossiya orqali keltirilgani uchun baxmali zagranish deb yuritilgan (ruscha zagranichniy so'zidan olingan). Barhutlar g'oyat rang-barang tusda bo'lishiga qaramasdan, kishilarga qizil, binafsha, yashil va ko'k rangdagilari ko'proq yoqqan. Qizil va binafsha rangdagi barhutlardan ayollar va bolalar kiyimlari uchun qo'llaniladi. Sof ipak barhutdan tashqari baxmali musi degan silliq, yarmi ipak barhut erkaklar choponidan boshqa barcha buyumlar uchun ishlatiladi. Yarim shoyi jaydari olacha gazlama zardo'zlikda deyarli barcha buyumlar tayyorlashda ishlatiladi. Undan asosan uy-ro'zg'or buyumlari (2-rasm) "So'zana", "Yostiq jildi", "Joynamoz", "lo'la bolish"lar jildi tikiladi.



2-rasm. Zardo'zlik san'ati namunalari.

Turli navdagi simli iplar zardo'zlik uchun asosiy xom-ashyo bo'lib hisoblanadi. Qadimdan Misr hamda Bobilda zar va kumush ip tayyorlash texnologiyasi ma'lum bo'lgan. O'rama zar simlar dastlab Dehli shahrida ishlab chiqarilgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoroga zar iplar faqat Moskvadan, keyinchalik Angliyadan, hozirda Yaponiyadan keltirilyapti. G'oyat momiq zar tolalar buxorolik zardo'zlar tilida kalyobatun nomi bilan mashhur bo'lib, u goh zar, goh kumush ip o'rnida qo'llanilgan. U yoki bu navni ajratish zaruriyati tug'ilib qolsa zar ipga tilla kalyobatun, kumush ipga kalyobatun safed (oq) deb ataladi. Kalyobatun ingichka metal ip bo'lib, shoyi ipga puxta o'ralgan. Kalyobatun tayyorlash uchun kumush qotishmasini oz emas, ko'p emas 84 foizgacha bo'lgan sifati ishlatilgan.

"Tilla" kalyobatun tayyorlash uchun sim ipga tilla suvi yugurtirilgan. Kalyobatunning asosini tashkil etuvchi ipak ipning rangi turlicha bo'lgan. Kolyobatun bilan sim Buxoro zardo'zligining asosiy xom-ashyosi hisoblangan. Ayniqsa, kolyobatun XIX asrning boshida shu paytgacha bo'lgan davrga oid barcha buyumlarda uchraydi. Zardo'zlikda oltin, kumush rangdagi ipak hamda sun'iy ipak va tolalardan foydalaniladi.



3-rasm. Zardo'zlikda do'ppi tikish uchun buyumlar

Zardo'zlikda yana po'lakcha, olmos qubbalar, zarhal to'g'alar va boshqalar ishlatiladi.

Po'lakcha-zardo'zlikda ishlatiladigan kichkina piston (pirpirak). U mayda oq, qizil, sariq va boshqa ranglarda bo'ladi. Buyumga bezash uchun qadaladigan, o'rtasidan teshikcha qilingan metall pistoncha.

Olmos qubbalar-turli nav oltindan zardo'zlaming o'zlari yasagan zargarlik taqinchoqlariga o'xshab ketuvchi bo'rtma naqshlar, dur, hamda qimmatbaho tabiiy va sun'iy toshlar, shishadan tayyorlangan munchoqlar ishlatiladi.

Zarhal to'g'alar-mahalliy zargarlar ishlagan, odatda qora sir va feruza bilan bezatilgan, nafis gul naqshi tushirilgan bo'ladi.

Zardo'zlikda tikish usullari ularda ishlatiladigan zar iplarning tuzilishi va choklarning ko'rinishiga ko'ra 3 turga bo'linadi.

-zardo'zi-guldo'zi tikish turi;

-zardo'zi-zamindozi tikish turi;

-birishimdo'zi tikish turi.

Guldo'zi usulining umumiy xususiyati shundaki, charm, korton, qalin qog'ozdan qirqilgan naqshlar, gullar ustiga turlicha xolatdagi zar iplar bilan butunlay qoplab tikiladi. Guldo'zi so'zi aralash so'z bo'lib, gul-gul, do'zi-forscha tikmoq degan ma'noni bildiradi.



4-rasm. Duxoba. Zardo'ziy-guldo'ziy erkaklar choponi.

Zamindo'zi - forscha zamin- yer, tagi, do'zi-tikmoq degan ma'nolarini anglatadi. Bu usulda tikish naqshlar tagini yoppasiga zar iplar bilan to'ldirib tikishdir.

Birishimdo'zi usulida naqshlar ipak iplar bilan tikilgan. Birishimdo'zi so'zi forscha so'z bo'lib birishim- ipak, do'zi tikmoq degan ma'nosini anglatadi. Zardo'zlikda o'simliksimon, geometrik naqshlar, gulli giruh, ramziy va boshqa turlardagi naqshlar qo'llaniladi.

Naqshlar buyumga qanday joyning bezatilishiga qarab o'ziga xos turli-tuman uslubda bajarilish texnologiyasiga va mazmuniga ega bo'ladi.

Ko'pincha gul va yaproq naqshlari doira markazidagi gul va markaz atrofida aylana shaklida joylashib, geometrik shakllar tagzamani to'ldirib turadi. Butador uslubidagi zardo'ziy-guldo'ziy erkakcha cho'pon 4-rasmda ko'rsatilgan. Markaziy qismi va hoshiyasida "bodom" kashtasi tikilgan.

Dars jarayonlarida o'qituvchi o'quvchilarga zardo'zlik ishlari bilan tanishish bo'yicha, gazlamalarga zar bilan ishlov berishni texnologik jarayonini o'rgatish uchun mustaqil ishni tashkil qilishga undaydigan ko'rsatish, namoyish qilish uslubidan foydalanish maqsadga muvofiq bo'ladi.

"Zardo'zlik san'ati" mavzusida nazariy darsda no'ananaviy texnologiya elementlaridan, jumladan, Klasterlarga ajratish usulidan foydalanish mumkin (sxema).

"Klaster" metodi. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchilar bilan yakka tartibda, gurux asosida tashkil etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.

Metoddan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi:

- nimani o'ylagan bo'lsangiz, uni qogozga yozing! Fikringizning sifati haqida o'ylab o'tirmay, shunchaki yozib boring!
- yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jixatlariga e'tibor bermang!
- belgilangan vaqt nixoyasiga yetmagunicha, yozishdan to'xtamang!
- agar ma'lum muddat o'ylay olmasangiz, u holda qogozga biror narsaning rasmini chiza boshlang!
- bu harakatni yangi goya tug'ilguniga qadar davom ettiring!
- muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi goyalarni ilgari surish, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik, bog'likni ko'rsatish.

Bu metod yordamida o'quvchilar topshiriq bo'yicha fikrlarini klaster (mayda, alohida qismlar) tarzida quyidagicha ifodalash mumkin:


1) Doska yoki qog'ozning o'rtasiga "kalit so'z" yoziladi. Bizning darsimiz mavzusidan kelib chiqib yozadigan bo'lsak, "Zardo'zlik san'ati" so'zini yozamiz.

2) O'qituvchi o'quvchilardan shu tushunchaga bog'liq qanday fikr bo'lsa aytishlarini so'raydi va aytilgan fikrlarni kalit so'z atrofiga yoza boshlaydi. Bunda zardo'zlikda ish uslublari, zardo'zlikda naqsh turlari, ular haqidagi ayrim tushunchalar aytiladi va doskaga yoziladi.

3) Bu yozish jarayoni ajratilgan vaqt tugaguncha yoki hamma fikrlar aytib bo'lguncha davom ettiriladi.

4) Yozilgan barcha fikrlarni sxematik usulda "Zardo'zlik san'ati" so'zi bilan bog'laymiz. Buni quyidagicha tasvirlash mumkin.

O'qituvchi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazar ekan, ularning zardo'zlikda ishlatiladigan asbob-uskunalar va zar bilan tikishdagi naqsh turlarini bajarish ko'nikmalarini qanchalik o'zlashtirganliklarini aniqlaydiki shunga qarab o'quvchilarning ko'rsatilayotgan ish usullarini yaxshiroq tushunib olishlarini ta'minlashga erishiladi.



Sxema. Zardo'zlik san'atiga oid tushunchalarni "Klaster usuli" asosida tushuntirishga oid tuzilmaviy sxema

Ushbu usuldan foydalanish darsdan qo'yilgan maqsadga erishilishiga olib keladi, ya'ni o'quvchilar «Servis xizmati» yo'nalishi bo'yicha zardo'zlik ishlarini tashkil etishga oid mavzulari bo'yicha asosiy tushunchalarni o'zlashtirib oladilar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent. 2017 y.
2. Bulatov S.S. O'zbek xalq amaliy-bezak san'ati. O'quv uslubiy qo'llanma. Toshkent. 1991y
3. Jabbarova D.I.Zardo'zlik texnologiyasi. Toshkent. O'qituvchi, 2002.
4. Hamdamov Yu. Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya (interfaol darslar). Toshkent. Falsafa va huquq instituti nashriyoti. 2007 y.
5. Tojiyev M., Tolipov O'.Q., Seytxalilov E.A. Pedagogik texnologiyalar (zamonaviy pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslari). Toshkent. OO'MKHTRM, 2008
6. F.Yusufxo'jaeva. Mehnat ta'limi darslarida zardo'zlik ishlarini tashkil etish. // Xalq ta'limi jurnali. 2010 yil 4-son B.99-102
7. Xasanov E. G, Akromxo'jaeva M, Akromxodjaeva R- «Kashtachilik» uslubiy qo'llanma, «Zamonaviy o'qitish vositalari va axborat texnologiyalari» ilmiy, o'quv-uslubiy ishlab chiqarish laboratoriyasi. Toshkent-2004 y
8. Orisheva, Z., & Orishev, J. (2021). Servis xizmati fanini o'qitishda keystadi metodidan foydalanish. *Физико-технологического образования*, (5).
9. Orisheva, Z. (2020). Zardo'zlikka oid mavzularni o'quvchilarga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari. *Физико-технологического образования*, (1).
10. Orishev, J. (2021). "Metrologik o'lchovlar" mavzusini o'qitishda nostandart testlardan foydalanish. *Физико-технологического образования*, (2).
11. Orishev, J. (2021). Project for training professional skills for future teachers of technological education. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(2), 139-150.
12. Ismailov, T. J., Tagaev, X., Kholmatov, P. K., Yusupov, K. Y., & Alkarov, K. K. Orishev Zh. B Karimov OO (2020). Cognitive-Psychological Diagram Of Processes Of Scientific And Technical Creativity Of Students. *International Journal of Advanced Science and Technology*, 29(08), 3669-3677.